

## XORAZM MADRASALARINING O‘RTA OSIYODA TUTGAN O‘RNI.

**Sotimov O‘ktamboy Rajabovich**

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm vohasi, xususan, Xiva xonligi madrasalarining O‘rta Osiyo ta‘lim tizimi va ma‘naviy hayotidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Xorazm me‘morchilik maktabining o‘ziga xosligi, madrasalarning oliy ta‘lim markazi sifatidagi funksiyalari va ularda qo‘llanilgan o‘quv metodologiyasi yoritilgan. Shuningdek, maqolada Sherg‘ozixon, Muhammad Aminxon va Muhammad Rahimxon II kabi yirik madrasalarning mintaqaviy intellektual salohiyatni oshirishdagi ahamiyati, ularning vaqf mulklari orqali iqtisodiy ta‘minlanishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Madrasa, vaqf, mutavalli, mudarris, talaba, hujra, darsxona, Ichan-qal’a, Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta minor, Arab Muhammadxon madrasasi, Sherg‘ozixon madrasasi, Maskani fozilon, Qutlug‘ Murod inoq madrasasi, sardoba, vaqfnoma, botmon, tanob, Pahlavon Mahmud maqbarasi.

### THE PLACE OF KHOREZM MADRAS IN CENTRAL ASIA.

#### ABSTRACT

This article analyzes the role of the Khorezm oasis, and in particular the Khiva Khanate madrasahs, in the educational system and spiritual life of Central Asia. The study highlights the uniqueness of the Khorezm architectural school, the functions of madrasahs as centers of higher education, and the educational methodology used in them. The article also provides information on the importance of such large madrasahs as Shergozikhan, Muhammad Aminkhan, and Muhammad Rahimkhan II in increasing regional intellectual potential, and their economic support through endowment properties.

**Keywords:** Madrasa, foundation, mutavalli, mudarris, student, room, classroom, Ichan-qala, Muhammad Aminkhan madrasa, Kalta minor, Arab Muhammadkhan madrasa, Shergozikhan madrasa, Maskani fazilan, Kutlug Murad inaq madrasa, cistern, foundation certificate, batman, tanob, Pahlavon Mahmud mausoleum.

Madrasalar Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega o‘quv maskanlari sanaladi.

Madrasa arabcha «darasa» («o‘rganmoq») so‘zidan olingan bo‘lib, «o‘rganish joyi» degan ma‘noni bildiradi. Islom vujudga kelgan birinchi kunlardanoq masjidlar qurila boshlagan. Lekin madrasalar qurilgan vaqtni aniq aytish qiyin. IX-XIII asrlarda islom diniga e‘tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, O‘rta Osiyoda tarqalgan. Ayrim olimlar dastlabki madrasa Buxoroda X asrda qurilganligini ta’kidlaydilar. Narshaxiyning yozishicha, 937 yilgi yong‘inda zarar ko‘rgan «Forjak» madrasasi O‘rta Osiyodagi dastlabki madrasalardandir.

Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo‘lgan. Madrasa muassislari madrasani ta‘minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta‘mirlash uchun ajratilgan, ma‘lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan.

Madrasaga maktabxonani tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo‘lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan. Talabalar kunduzgi bo‘lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo‘lim talabalari toifalariga ajratilgan.

O‘rta Osiyoda madrasalari ko‘pligi jihatidan Xiva xonligi Buxoro amirligidan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallagan. Bu davrda 130 dan ziyod madrasalar faoliyat olib borgan. Arab Muhammadxon, Sherg‘ozixon, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon soniy madrasalari madrasayi oliya maqomiga ega bo‘lgan.

Ma'lumki, Xorazm boy tarihga yega bo'lgan, bir qancha allomalar yetishib chiqqan ko'hna zamin hisoblanadi. Shu go'zal o'lkada joylashgan qadimiy va navqiron Xiva shahri yesa ushbu muqaddas zaminning gavharidir. Xiva shahri boy madaniyati, qo'hna tarihi, qadimiy osori-atiqalari, tarixiy obidalar bilan jahonda o'zining munosib o'rniga yega. Xivaning qadimiy markazi bo'limi "Ichan qal'a" tarixiy -me'moriy muzey qo'riqxonasi qo'hna moddiy va madaniy – ma'rifiy muassasa 1969-yilda tashkil qilingan bo'lib, u o'ziga hos an'analarni saqlash, o'rganish va targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. 1991 yilda "Ichan qal'a" jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Muzey qo'riqhona 26 gektar maydonni yegallagan bo'lib, 54 ta tarixiy obidani o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu obidalar ichida Muhammad Aminhon madrasasi va minorasi o'zining boy tarihi bilan alohida ahamiyatga molikdir. Xiva shahrida XIX asr ohiri va XX asr boshlarida ko'plab madrasalar bor yedi. 1851-1855 yillarda Xiva xoni Muhammad Aminxon farmoniga binoan qurilgan va uning nomi bilan ataladigan Muhammad Aminxon madrasasi ular ichida yeng kaltasi hisoblanadi. Madrasa ikki qavatli, 125 hujradan iborat bo'lib, unda 260 talaba tahsil olgan. Madrasa yiliga 1200 Xiva botmoni (bir botmon 20 kg) miqdorda bug'doy va 5000 tilda pul daromad qilgan. Xon tomonidan bu madrasaga yeng serhosil yerlardan 35325 tanob yer vaqf qilib berilgan. Madrasa qurib bitkazilgach, hon tomonidan madrasa yaqinida yeng baland minora qurishga farmon beriladi. Minora 1851 yilda qurila boshlangan, qurilishi davom qilayotgan davrda, ya'ni 1855 yili Muhammad Aminhon Yeronga yurish qiladi va Sarahsda 20 ta sardori bilan turkmanlarga asir tushib, qatl qilinadi, natijada u boshlagan minora bitmay qoladi

Arab Muhammadxon madrasasi 1616-yilda nigirikdan qurilgan. Madrasa 2 qavatli, 40 hujradan iborat. Yusuf Hoji Do'iy ko'p yillar ushbu madrasada oxunlik qilgan. Keyinchalik Bobojon Tarroh shu madrasada mutavalli bo'lib ishlagan. Xonning o'zi eskirgan madrasalarni ta'mirlash ishlariga ham g'amxo'rlik qilgan. 1616-yilda sinchdan qurilib xaroba ahvolga kelgan Arabxon madrasasini yiqtirib, pishiq g'ishtdan qayta qurdirdi. Bugungi kunda ushbu madrasada Xiva ichan qal'a muzey qo'riqxonasiining fondi joylashgan. Bu fondda Xiva xonligining hujjatlari, vaqf xatlari, qo'lyozma va toshbosma kitoblar saqlanmoqda.

Shergʻozixon madrasasi 1720-yilda Xiva hukmdori Shergʻozixon Muhammad Bahodirxon tomonidan qurilgan. Bu madrasa “Maskani fozilon” – Olimlar uyi deb nom oldi. “Maskani fozilon” – Markaziy Osiyo va uning atrofidagi mamlakatlardan taʼlim ilinjida kelgan toliblar ilm olishgan. Shergʻozixon madrasasida XIX asr oxirida Muhammad Yoqub oxund eshon, Husayin oxund eshon, Muhammad Rafi oxund eshon, Ortiq oxund eshon kabi 45 mudarris olimlar saboq berganlar, kutubxonachi, sartarosh, farrosh va suvchi lavozimidagi kishilar talabalarning xizmatida boʻlgan. Bu madrasa, asosan, tibbiyotga ixtisoslashgan. Shuningdek, masjid, madrasa oʻqituvchilari, mulla, xatiblar, shariat sudi xodimlari xam tayyorlangan. Madrasada jami 55 hujra mavjud boʻlib, 100 dan ziyod talaba ilm olgan. Madrasa kirish darvozasi hamda peshtoqi yuqorisida marmar toshga nastaʼliq xatida forsiyda bitilgan vaqf xayriyasi haqidagi lavhlar oʻrnatilgan.

Arxiv hujjatida keltirilishicha, madrasa vaqfidan tushgan daromad madrasa xodimlariga tubandagicha taqsimlangan.

Qutlugʻ Murod inoq madrasasi Muhammad Rahimxon I taxtga oʻtirgandan keyin xonlikda asta-sekin iqtisodiy yuksalish yuz berdi. Natijada Xorazmdagi qadimgi anʼana-arxitektura sohasi rivojlana boshladi. Albatta bu anʼanani xon va uning atrofidagi mansabdorlar boshlashdi. Oʻsha davrda shaharda madrasalar uncha koʻp boʻlmagan.

Arabxon madrasasidan tashqari Xoʻjamberdibiy (1688), Shergʻozixon (1719-1720), Muhammadamin inoq (1765), Fozilbek (1799), Eshmurodbiy (1810) madrasalari faoliyat koʻrsatgan. Muhammad Rahimxon I davrida qurilib, bugungacha saqlangan meʼmoriy obidalardan biri Pahlavon Mahmud maqbarasi boʻlsa, ikkinchisi uning akasi Qutlugʻmurod inoq tomonidan 1806-1811 yillarda qurilgan madrasadir.

Inoqlar Qoʻngʻirotlar urugʻining sardori hisoblanib, katta mavqega ega boʻlishgan. K.Xudoyberganov epigrafik maʼlumotlarga tayangan holda, yaʼni kirish eshigidagi yozuvga koʻra, uning milodiy 1806-yilda qurilganini yozadi.

Madrasani barpo qilganda birinchi bo‘lib, yer ostida sardoba qurdirgan. Qal’a qamal qilingan taqdirda aholi o‘sha manbadan suv bilan ta’minlangan[8, B.29.]. Qutlimurod inoq madrasa ichida o‘ziga qabr ham tayyorlab, vafot etganda o‘sha joyga dafn qilishni vasiyat qiladi. U 1824-yilda to‘satdan kasallikka chalinib vafot etadi va qal’a devorining bir qismini yiqib, Qutlimurod inoqning jasadi shaharga kiritiladi va o‘zi vasiyat qilgan joyga dafn qilinadi. «Tavrix ul xavonin» asarida bu haqda shunday ma’lumot keltiriladi: «shavvol oyining to‘rtinchi kunida (2 iyun) qum ichidan kelib Qorako‘l yonidan chiqqanlar va shaharga keltirilgan Qutlug‘ Murod inoqning jasadini Xivaq shahrining ichida, o‘zi qurdirgan madrasaning maxsus tuzattirgan joyida dafn qildilar. Muddati umri 56 yil erdi». Keyinchalik qal’a devorining yiqilgan joyida Olloqulixon o‘z nomida madrasa, karvon saroy va tim qurdiradi. Madrasa XVI-XIX asrlar Buxoro me’morchiligi an’analarini eslatadi va bu qurilishda Buxoro ustalari ham qatnashgan bo‘lishi mumkin degan xulosani beradi. Madrasa ikki qavatli, pishiq g‘ishtdan qurilgan, unda 81 hujra, darsxona, masjid bo‘lib, masjidning kirish eshigidagi yozuvdan uning milodiy 1806-yilda qurilgani ma’lum bo‘ladi. Tarixiy ma’lumotlarda madrasa uchun 24634 tanob yer vaqf qilinganligi borasida so‘z yuritilgan. P.P.Ivanov madrasaning 1858-yildagi daromadi 1880 botmon g‘allani tashkil qilganini yozadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бабаджанов Б., Раҳимов К., Худойберганов К. Ўзбекистон обидаларидаги дурдона битиклар. Хива. III. Биринчи китоб. – Тошкент: “Uzbekistan today”, 2015. – Б. 299-307.
2. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. Тошкент, 2012. -Б.114.
3. Огаҳий. Жомъе ул воқеоти султоний. -Т. 1980, Асарлар 6-жилд. -Б.88.
4. Хоразм тарихи. I жилд. (М. Матниёзов таҳрири остида) – Урганч: Хоразм, 1996. – Б. 26.
5. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 1224-1227.